



O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ASARIDAGI OBRAZLAR TALQINI

Otaboyeva Dilnoza

Urganch Ranch texnologiya universiteti o‘qituvchisi

Zaribova Mo‘tabar

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi

Annontatsiya. Ushbu maqola o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos taniqli yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida obrazlarning xarakter-xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, muallif asar orqali insoniylik eng oliy qadriyat ekanligini, hayotda qanday vaziyat bo‘lmasin, halollik va adolatni saqlab qolish mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Obrazlar orqali inson hayotida ikki yo‘l borligi-halollik va insofsizlik, ezgulik va yovuzlik orasidagi tanlov muhimligi ramziy ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: obraz, pafos, urush fojealari, peyzaj, insonparvarlik, ijodkor mahorati

XXasrning 60-yillarida adabiyot olamiga kirib kelgan, o‘zbek xalq yozuvchisi, Respublika Davlat mukofoti sohibi, o‘ziga xos betakror publitsist, ko‘plab hikoyalar, romanlar, qissalar, dramalar yaratgan qalami o‘tkir ijodkor O‘tkir Hoshimovdir. Uning “Tushda kechgan umrlar”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi” romanlari kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan va o‘zbek adabiyotida eng ko‘p sevib o‘qiladigan kitoblardan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yozuvchi ijodida bitmas tuganmas durdona asarlaridan biri, butun o‘zbek xalqiga meros qilib qoldirgan “Ikki eshik orasi” asari 2-jahon urushi yillarida sodir bo‘lgan voqealar, yo‘qotishlar, qiyinchiliklar, insonlar taqdiri, umr yo‘llarining murakkabligi, farzand dog‘ida ado bo‘lgan ota-onalarning qalb jarohatlari,



ko'ngillariga ozor yetkazganligi romanning asosiy pafosini tashkil qiladi. Asar badiiy bezagining ko'rkiga ko'rk qo'shgan Orif Oqsoqol obrazi o'zining insonparvarligi, mahalla-yu jamiyatda qozongan obro'si, urushning eng og'ir damlarida ham har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tib, butun No'g'ayqo'rg'on ahlini urush fojealaridan to yangi hayot sari harakat qilishga undagan, qalblarida umid chiroqlarini so'ndirmaslikka da'vat qilgan nuroniy, ko'pni ko'rgan donishmand, ziyoli qatlam vakili sifatida gavdalantiriladi. Haqiqiy o'zbek ayollarining sabrli va matonatli ekanligi, har qanday vaziyatda ham imonini yo'qotmaganligi, mehrdaryoligi, eng og'ir damlarda boshiga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'zida kuch topa olganligi ayniqsa Robiya va Qora amma obrazlarida yoritib berilgan. Yozuvchi insonning husni, istaraliligi faqat uning tashqi ko'rinishda emas, balki qalbining go'zalligiga bog'liq ekanligini aynan Qora amma obrazida ko'rsatib berdi. Olti farzandini yerga qo'yib bittagina yer-u ko'kka ishonmay katta qilgan, ko'zining oqu-qorasi o'g'li Kimsanni xalqqa kelgan to'y sababli el-yurt tinchligi yo'lida kamarbasta bo'lsin deb hech narsa deyolmay yolg'iz farzandini urushga jo'natdi. Kimsan so'ngi nafasi qolguncha Vatani ozodligi uchun kurashadi. Tajriba o'tkazish maqsadida asirlarni birin-ketin muzlagan suv tagiga tushishga majbur qilgan nemislarning safini bittaga bo'lsayam kamaytirgan Kimsan ham suv tagiga g'arq bo'lib, mardlarcha halok bo'ladi. Shunday qilib, urushdan qaytib kelmaydi. Ona... Ona bunga ishonmay oylar, yillar o'tsada uning kelishidan umidvor bo'lib, unga a'za ochmaydi. Lekin yillar o'tib, tinch va farovon hayot yo'llarida ona-bola uchrashishadi. "G'amboda ona" bekati ularni uchrashtiradi. Yozning issiq kunlarida, oftob nurida yashnab yotgan gulzorlardagi atirgul gullarining o'tkir hidi, olovdek tovlanayotgan binafsha rang gulsapsarlar, o'z onasini himoya qilayotgan noma'lum askar haykali atrofini o'rab olgan edi. Ichidagi mitti "odamchalar" hushtak chalib, g'ij-g'ij nafas olganicha yigit haykali yoniga yugurib borgan Qora amma haykalni quchoqlab:

"Bole-em!



Onasining go‘riga tushgan bole-e-em!

Jonim bolam!

Onasini dog‘da qoldirib ketgan Kimsani-i-im! “deya unsiz yig‘laydi.

Haykalning kaskali boshidan quchoqlab o‘pa boshladi. Ro‘moli sirg‘alib tushib, haykalning avtomatiga ilinib qoldi. Oppoq sochlari to‘zg‘ib ketdi. Biroz vaqt o‘tib Qora amma talmovsirab atrofga qaradi. Ko‘zlarida bolalarcha hayrat bor edi. [2.507] Noma'lum askarning boshini silab yig‘lab yuborgan Robiya ham Kimsan akasini uzoq kutgan edi. Axir ular bir-birisini yoqtirib, axti-paymon qilishgandi. “Bo‘yi yetgan qizning orzusi osmondagi yulduzga o‘xshaydi. Uzoqdan yaraqlab ko‘rinadi-yu, na yetasan, na tutasan. Yulduz esa olisda sirli-sirli miltirab turaveradi. Talpinasan, hech kimga bildirmay xayol surasan. Yulduzing yoninga tushishini orziqib kutasan. Kim bilsin, “Yulduzi yulduziga to‘g‘ri kepti”, degan gap balki shundan chiqqandir. Mening yulduzim-Kimsan akam” [2.124]

Taqdirim Kimsan akam deya, qiyiqchalar tikkan Robiya etagidan tutib ona degani, non-tuzini yegani hurmati uchun onasining gapini ikki qilolmay, tog‘asi Shomurodga turmushga chiqishga majbur bo‘ladi. Ne-ne orzu-umidlarini yuragining tubiga ko‘madi. “Odamzod farishta bo‘lib tug‘iladi. Ammo bir umr farishta bo‘lib yasholmaydi. Hech kim! Hech kim farishta emas. Faqat o‘zini oppoq qilib ko‘rsatgisi keladi. Ming uringani bilan farishta bo‘lolmaydi. Yo‘ldan shunaqangi shaytonlar chiqadiki, gunohga botganini o‘zi ham sezmay qoladi”. [2.393] Umr so‘qmoqlarini bosib o‘tish insonda matonat va jasorat talab qiladi. Shunday sinovlar, hayot yo‘llaridagi yengib bo‘lmas to‘siqlardan o‘tolmagan Ra‘no Shomurod akasining urushga ketayotganida zor yig‘lab, u siz yasholmasligini, nafas ololmasligini aytgani nahotki yolg‘on bo‘lsa? Axir uni jonidan ortiq ko‘rardi-ku! Uni yo‘ldan ozdirgan shayton esa Umar Zakunchi edi. Lekin Ra‘no ham o‘z nafsini jilovlay olmadi. Xiyonatni bir odam qilmaydi. Albatta sherigi bo‘ladi. Shomurod u yoqda xotining nomusini himoya qilsa, qaytib



kelgandan keyin mina o'pirib ketgan yelkasini o'pib, bag'rida bo'la turib Ra'no yana Zakunchi bilan birga erining ko'ziga cho'p solganini kechirib bo'lmasdi. "Juvongina o'lgur noinsof! Bolaning uvoli tutgur imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo'q edi-ku! Cho'loq bo'lsa devor oshib o'g'irlik qilib bo'lmagandir! To'rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o'lgan qanchadan-qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o'ylasang bo'lasmidi, imonfurush" [2.39] Dalada g'alla o'rish mavsumi. Har kuni Shomurod uchun tushlik olib keladigan Ra'no, o'sha kuni kelmadi. Ko'ngli g'ash tortgan Shomurod Bo'rijar yoqasida avval Zakunchini keyin Ra'noni ko'radi. Yong'oq tagida o'g'li Muzaffarni qoldirib, Zakunchi bilan o'z jonlarini asrash uchun qochib ketganliklari va kechirib bo'lmas gunoh ishlarining badalini esa o'g'li Muzaffar o'z singlisiga ko'ngil qo'ygani, Munavvar bilan baxtli hayot kechira olmagani va undan bir umrga ayrilganligi bilan to'laydi. "Bir kiprik qoqgulik qisqagina umringizda tinch-totuv yashasalaring bo'lmaydimi? Goh non talashasizlar, goh shon! Goh makon talashasizlar, goh imon! Axir hammangiz insonsiz-ku. Hammangiz mening bolalarimsiz-ku, men sizlarning otangizman-ku. Bir-birlaring bilan bilan qirpichoq bo'laverishlaringni ko'rib charchab ketdim-ku! Yetar axir, yetar bolajonlarim! O'z onangizni-Yer kurrasini adoyi tamom qilib tinchimoqchimisiz?! Onangiz shu umidda tug'ganmidi sizni?! Shu niyatda ko'tarib yuribdimi ko'ksida! " Quyosh har kuni shunday deb iltijo qiladi. Ammo odamlar uning hayqirig'ini eshitmaydi. Bir-biriga chog' qaziydi. Bir-birining ko'ziga cho'p soladi, xiyonat qiladi. Quyosh har kuni uyg'ongan zahoti jilmayib boqadi-yu, unsiz xitob qiladi. [2.605] Asar Muzaffar hikoyasi bilan boshlanadi va Muzaffarning hikoyalari bilan tugaydi. Asarning nomi bejizga "Ikki eshik orasi" deb nomlanmagan. Odamzod yuz yil umr ko'radimi, ming yilmi baribir o'lgisi kelmaydi. Ming yil yashagan bir sahoba "essiz essiz, u eshikdan kirdim-u bu eshikdan chiqib ketyapman" degan ekan. Kimdir bu eshikdan kirganda "hayot" deb atalmish imoratga bir g'isht qo'yib ketishadi, kimlardir esa bu g'ishtni o'g'irlab ketishni o'ylaydi. Lekin bu bilan hech narsa olib



ketolmasligini tushunmaydi. Asarning barcha voqealari qizg'in, boricha tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining "Ikki eshik orasi" romani insoniylik va halollik g'alabasi haqidagi ibratli asar bo'lib, unda hayotning achchiq haqiqatlari, mehr va rahm shavqatning qudrati tasvirlangan. Har kim hayotda ikki eshik orasida turib, o'z yo'lini tanlashi kerak - yaxshilik yo'limi yo oson, ammo insofsiz yo'l. Bu tanlov esa insonning butun hayotini belgilaydi. Yozuvchi ushbu asari orqali har bir o'quvchini o'z hayoti, qadriyatlari va jamiyatdagi o'rnini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltaboyev H. El sevgan adib. Toshkent: 2011.
2. O' Hoshimov. "Ikki eshik orasi". Toshkent: "O'qituvchi" -2018.
3. O'. Hoshimov. Sakkizinchi mo'jiza. Toshkent. 2009.
4. <https://akademiklar.uz>